
Farg'ona shahrining Surxtepa mahallasida umumiy kontseptsiya asosida dam olish zonasi tashkil etilmoqda, kanal yoqasida zamonaviy loyiha asosida yil davomida uzluksiz faoliyat ko'rsatadigan ovqatlanish shaxobchalari barpo etiladi

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov viloyat sektorlari rahbarlari bilan Farg'ona shahrining Surxtepa mahallasida bo'lib, hududdan o'tgan kanal yoqasida umumiy kontseptsiya asosida tashkil etishga kirishilgan dam olish zonasida amalga oshirilayotgan loyihalar bilan tanishdi.

Viloyat rahbari 2022 yil noyabr oyida Surxtepa MFY hududidagi o'rganishlar davomida ko'plab mahallada yashovchilar o'z xonadonlari hududidan o'tgan kanal yoqasiga so'rilardan iborat dam olish joylari tashkil etishgani ko'zga tashlanib, xizmat ko'rsatish mahallada bandlikni ta'minlashning asosiy turlaridan biri ekani ma'lum qilingandi.

Viloyat hokimi bunday dam olish maskanlarini umumiy kontseptsiyaga birlashtirish, hududni obodonlashtirish, mahallada ichki turizm uchun sharoitlarni yaxshilash, taqdim etiladigan xizmatlar borasida targ'ibot ishlarini olib borish bo'yicha mas'ullarga vazifalar belgilab bergandi.

Bugun berilgan topshiriqlar ijrosi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar ko'zdan kechirildi, mahalliy aholi hamda tadbirkorlar tomonidan barpo etilayotgan dam olish maskanlari bilan tanishildi.

Barpo etilayotgan dam olish maskanlari, yil davomida uzluksiz faoliyat ko'rsatishi iqtisodiy jihatdan foydali bo'lishiga e'tibor qaratgan viloyat hokimi, viloyat qurilish sohasi mutasaddilariga xorijiy mavjud loyihalardan o'rnak olgan holda loyihalarga pergola usulida – qishda yopib, yozda yig'ib qo'yish mumkin bo'lgan yengil tipdagi tentlar tizimini o'rnatish bo'yicha me'moriy qo'shimcha kiritishga ko'rsatma berdi.

Xizmatlar sohasini hudud ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda alohida yondashuv bilan rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlashda eng katta zaxiralardan biri ekaniga e'tibor qaratgan viloyat rahbari, shahar hokimi Vosiljon Nazarovga ushbu mahalladagi loyihalarni jadal va belgilangan ko'lamda amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha vazifa yukladi.

2023-04-08 18:01:12